



TIBBIYOTDAGI REPRODUKTIV SALOMATLIK TERMINI MA'NOSI VA U BILAN BOG'LIQ ATAMALAR MAZMUN MOHIYATI

G. S. Shodmonova

Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o'qituvchisi

shodmonovagavhar12@gmail.com

Tilimizga o'nlab, yuzlab turli sohalarga oid terminlar uzluksiz kirib kelmoqda. Ulardan mutaxassislar, qolaversa, o'z sog'ligini asrashni istagan har bir inson boxabar bo'lmog'ini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Shunga ko'ra tibbiyotda keng qo'llanilayotgan reproduktiv salomatlik haqida fikr yuritmoqchimiz.

REPRODUKSIYA (re... va lot. *produco* — yarataman) — 1) tasvirlar (tasviriy san'at asarlari, bosma matn, xarita, hujjatlar, fotosuratlar va b.) ni fotografiya yoki poligrafiya usulida hosil qilish; 2) poligrafiya usulida hosil qilingan surat, rasm, fotosurat va boshqalar. Asl nusxaning barcha xususiyatlari aniq hosil qilinadigan R. faks i mal R. deb ataladi; 3) psixologiyada — xotirada qolgan narsani aniq yaratish jarayoni; 4) biologiyada — organizmning o'ziga o'xshash organizmlarni yaratishi, ko'payishi. 5) tibbiyotda — ayol reproduktiv organlari ish faoliyati natijasida o'zidan yangi bir avlod yaratish.

REPRODUKTIV ORGANLAR (lot. *re* -tiklanish, takrorlanish ma'nosida, *produco* — yarataman) — o'simlik va hayvonlarning ko'payish funksiyasini bajaradigan organlari. O'simliklarda reproduktiv organlar — vegetativ jinsiz va jinsiy ko'payishni amalga oshiradigan har xil tuzilmalar. Jinsiy jarayon va nasl gallasini bo'lmaydigan prokariotlarda reproduktiv organlar tinim davridagi sporalar, gormogoniyalar va boshqalardan iborat. Ko'pchilik zamburug'lar, suvo'tlar va nasl gallasini (sporofit va gametofit) orqali rivojlanadigan sporali o'simliklarda reproduktiv organlar jinsiz ko'payishda sporangiyalar, jinsiy ko'payishda gematangiylardan iborat. Urug'li o'simliklarda nasl gallasini yashirin o'tadi va qizlik sporofit (urug'kurtak) ona sporofitda rivojlanadi; reproduktiv organdagi mikro va megasporositlar, changdon va tuxumning generativ hujayralari hisoblanadi. Ko'pincha reproduktiv organlar termini keng ma'noda qo'llanadi; ularga gullar, mevalar (yopiq urug'lilar) va strobilalar, ya'ni erkak va urg'ochi qubbalar (ochiq urug'lilar) va boshqa generativ strukturalar kompleksi qo'shiladi. Vegetativ ko'payish organlari ham reproduktiv organlarga kiradi. Hayvonlarda va insonlarda reproduktiv organlar jinsiy organlar deyiladi.

Insonlardagi (ayollarda) reproduktiv organlar: asosiylariga tuxumdon va unda shakllanadigan ayollar jinsiy tuxum xujayrasi, bachadon kiradi. Qo'shimcha ravishda qin, bachadon naylari, jinsiy garmonlar (ayollik garmoni-esterogen, homiladorlik garmoni ya'ni bachadon garmoni-progesteron).

REPRODUKTIV DAVR- insoniyatning umr davrlaridan biri bo'lib, aynan o'zidan nasl-avlod qoldira olish xususiyatiga ega bo'lgan davri hisoblanadi. Hozirda bu davr o'z ichiga 30 yilni qamrab olgan holda, insoning 18-19 yoshidan, to 49 yoshigacha bo'lgan davrdir.



REPRODUKTIV SALOMATLIK — sodda qilib aytganda, faqat insonning reproduktiv tizimi va funksiyalari hamda jarayonlariga oid barcha masalalarda xastalikning yoʻqligini anglatmaydi, balki uning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan toʻliq moʻtadil holatini ifoda etadi.

REPRODUKTIV HUQUQ — bu barcha er-xotin va alohida shaxslarning oilada bolalar soni, ular tugʻilishidagi oraliq, tugʻilish vaqti haqida erkin hamda masʼuliyat bilan qaror qabul qilishi, buning uchun shart boʻlgan maʼlumot vositalarga ega boʻlishi borasidagi asosiy huquqlarni tan olish demakdir. Oilaning mustahkamligi koʻpgina omillarga, asosan ona va bolaning salomatligiga bogʻliqdir. Ona sogʻlom boʻlsagina, undan jismoniy va aqliy jihatdan sogʻlom farzand dunyoga keladi. Turmush qurishga tayyorlanayotgan yigit va qizlarimiz sogʻlom, jinsiy hayot gigienasi boʻyicha yetarli bilimlarga ega boʻlishlari kerak. Ayollarning salomatligini faqatgina homiladorlik davrida emas, balki yoshlik davridan boshlab taʼminlash muhim ahamiyatga ega.

REPRODUKTIV SALOMATLIK KONSEPSIYASI — Oxirgi yillarda “Reproduktiv salomatlik va huquq” konsepsiyasiga katta eʼtibor berilmoqda. Bu konsepsiya onalikda hamshiralik parvarishida katta ahamiyatga ega, chunki bu konsepsiya onalik va bolalikni muhofaza qilishga katta eʼtibor beradi. Onalikda hamshiralik parvarishi mohiyati jadal ravishda rivojlanib kelmoqda. Shuning uchun reproduktiv salomatlik va huquqni tushungan holda onalikda hamshiralik parvarishida parvarish masalalarini qayta koʻrib chiqish kerak.

Reproduktiv salomatlik konsepsiyasini rivojlanishi:

1. 1990 yil - Reproduktiv salomatlik nafaqat reproduktiv davrida kasallik va patologiyalarni boʻlmasligi, balki jismoniy, ruhiy va ijtimoiy holatni toʻliqligidir.

2. 1992 yil - Oilani rejalashtirish Xalqaro federatsiyasi faoliyati reproduktiv salomatlikni yaxshilashga qaratilgan.

3. 1993 yil - Akusher-ginekologlarning Xalqaro kongressi reproduktiv salomatlikning 4 ta asosiy elementini belgiladi:

1. Homiladorlikdan saqlanishni nazorat qilish. Nafaqat homiladorlikdan saqlanish, balki bepustlikni davolash ham zarur.

2. Har bir ayol bexatar homiladorlik va tugʻish huquqiga ega.

3. Barcha yangi tugʻilgan chaqaloqlar sogʻlom va baquvvat boʻlishlari kerak.

4. Jinsiy infeksiyalardan xalos boʻlish kerak.

4. 1994 yil - BMTning uchinchi Xalqaro konferensiyasida (Qohira, 1994 yil) aholishunoslik va taraqqiyot masalalari boʻyicha quyidagi ish rejasi tasdiqlandi: “Reproduktiv salomatlikni saqlab qolish maqsadida zamonaviy oilani rejalashtirish usullarini ommalashtirish”.

5. 1995 yil - Toʻrtinchi ayollar Xalqaro konferensiyasida quyidagi qonuniy projekt qayta tasdiqlangan “Ayol va salomatlik”, bunda reproduktiv salomatlik konsepsiyasi, huquq hamda jinsiy salomatlik masalalari kiritildi. Deklaratsiyada asosan, har bir ayol oʻzining jinsiy salomatligini saqlashi kerak va bunga oʻzi javobgarligini bilishi kerak, chunki bu ayolning insoniy huquqidir.



Demak, Reproductiv salomatlik tushunchasi hayo bilan, axloq bilan, qisqacha aytganda Sharqona turmush tarzi tutimi bilan chambarchas bog'liq ekan. Unga amal qilish – obod turmushning sog'lom talabidir. Uning mazmun-mohiyatini o'z tilida ongli anglagan har bir inson u to'g'risida samarali hamda sifatli ma'lumot bera oladi. Bilmadim degandan ko'ra, tushuntirgan afzal, bizningcha...

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-jild. 2004-yil.
2. Алляров Я.Н. «Репродуктив саломатлик ва контрацептив технология» Тошкент «Истиқлол» 2005.
3. Onalikda hamshiralik parvarishi. Allayarov. Samarqand. 2007 -yil.
4. Ruscha-lotinchacha O'zbekcha tibbiy lug'at. Toshkent, "Kamalak" "xazina" nashriyoti, 1996 yil.
5. Slovar inostrannyx slov. Moskva, Russkiy yazik, 2009.
6. Pravochnik prakticheskogo vracha. Moskva, "Bayan", 1992 Yil.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati, Toshkent, " OME " Davlat ilmiy nashriyoti, 2020 yil.
8. Yosh, Fil (1960). "Revmatik kasalliklar". Homiladorlik va laktatsiya davrida terapiya (1-nashr.). Routledge. 177-192 betlar.
9. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). DUNYO TA'LIM USLUBLARIDAGI SARA DURDONALAR... Научный Фокус, 1(7), 190-193.
10. Altorok, Nezam; Nada, Shigeyuki; Nagaraja, Vivek; Kahaleh, Bashar (2016-06-15). "17-bob-suyak va bo'g'imlarning buzilishlarida Epigenetika". Tollefsbolda Trygve O. (ed.). Tibbiy Epigenetika (tasvirlangan ed.). Akademik Matbuot. 295-314 betlar.
11. Rao, Sudha (2019-01-24). Olmos, Gerbert S. (tahr.). "Noartikulyar Revmatizm/Mintaqaviy Og'riq Sindromi". emedicsina.
12. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). XALQARO TA'LIM TIZIMIDA TEXNOLOGIYANING O'ZIGA XOSLIGI. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 1(6), 56-59.
13. WWW. Ziyonet.uz
14. WWW. Tibbiyot.uz